

**O'tkir Hoshimov asarlarida fojiviylik**

*Itolmasaova Feruza Aziz qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*O'zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqola XX asr ikkinchi yarim o'zbek adabiyoti, aniqrog'i nasri rivojida O'tkir Hoshimovning munosib o'rni va asarlarining umumbashariy qadryatlari haqida qisqacha ma'lumot beradi. Bundan tashqari maqolamizda O'tkir Hoshimov asarlarida tub burilishlar yasaydigan qahramon va zamon fojialari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *pyesa, roman, hikoya, muammo, shaxs xarakteri, mustabid, mafkura, yozuvchi, isyon.*

O'tkir Hoshimov XX asr o'zbek prozasining yirik vakillaridan biri bo'lib, o'z asarlarida turli insoniy munosabatlarni badiiy mahorat bilan ifodalagan yozuvchidir. Adib ijodiy yo'lining ilk qadamlaridanoq o'zini insonning ma'naviy olami, uning his-tuyg'ulari, tafakkurining biluvchisi sifatida namoyon etdi. Uning asarlarida ularni o'ziga rom qiluvchi, badiiy joziba bag'ishlovchi muhim xususiyatlar mavjud. Ulardan biri yozuvchining badiiy ijodni ibtidoiy targ'ibot quroliga aylantirmasligi, davrning dolzarb vazifalari haqida shior va nidolar aytmasligidir. Aksincha, u aksariyat asarlarida muhim umuminsoniy muammolarni badiiy yoritishga intiladi. Elimiz suygan adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov o'zining betakror qalami bilan o'zbek adabiyotiga iz qoldirib ketdi. El dardini o'z dardi deb bilgan ijodkorning ijodiy faoliyati uning nafaqat badiiy adabiyotda, balki publitsistikada ham betakror va sermahsul, shu o'rinda "dardli"ligi bilan ajralib turadi. Badiiy ijodda hikoya, qissa va roman janrining takomiliga samarali hissa qo'sha olgan O'tkir Hoshimov badiiy publitsistikaning maqola, adabiy-qaydlar, adabiy portret, suhbat janrida barakali ijod qila oldi. Ko'rinadiki, adibning adabiy tanqidiy qarashlari va estetik dunyoqarashi badiiy ijod qatori publissistikada ham

yorqin koʻzga tashlanadi. Oʻzbekiston xalq yozuvchisi <sup>1</sup>Oʻtkir Hoshimovning qirقدan ortiq asarlari ming-minglab kitobxonlarning maʼnaviy mulkiga aylanishga ulgurgan. Ushbu asarlar joy olgan kitoblarning umumiy tiraji esa 2 million nusxadan oshgan. Yozuvchi asarlari koʻpgina xorijiy tillarga tarjima qilingan. Bu natijalar har qanday ijodkor orzu qiladigan, intiladigan marradir.

Biz qachon kitobni sevib oʻqiyimiz? Unda tanish qismatlar aks etgan boʻlsa, qahramonlar bilan darddosh, baxtdosh boʻla olsakkina. Agar kitobni unda tasvirlangan qahramonlar va ularning qismatlari darddosh boʻlsagina kitobxon oʻqiydi. Oʻtkir Hoshimov asarlarining yana bir ajralib turadigan jihati bu asar qahramonlari xalq qalbiga yaqin, uning qaysidir qadrdoni yoki oʻz boshidan kechirgan qismatga sherikdir. Shu sababli ham qahramon chekkan dardning bir uchi kitobxon yuragini ham timdalab oʻtadi. Hoshimov asarlarida hech kimnikiga oʻxshamas pafos, ruh bor. Uning koʻplab ijod mahsuli boshlanish nuqtasi aniqku, lekin tugash nuqtasi qayerligini hech kim bilmaydi. Shu sababdanmi, asarga qiziqish eng soʻngi sahifagacha susaymaydi. Chunki uning oxiri qanday yakun topadi oldindan bilish qiyin. Yozuvchi asarlarida fojiviylik shunday singanki, bunda na zamon, na qahramon gunohkordek. Obraz taqdirini muxokamaga tortib, shaxs fojiasi desang, zamon inqilobi ham fikrimizni oʻzgartiradi. Birgina misol “Dunyoning ishlari” qissasidagi kichik hikoyalari olaylik, u yerda hislar va zamon isyoni namoyon boʻladi. “Urushning soʻngi qurboni” bu yerda yuz bergan fojiada kimni malomat qilasan kishi, ona farzandi uchun oʻgʻirlikka rozi, boshqa bir ona (kelin) farzandi risqini kamaymasligini istaydi, shundoq ham doʻppi tor kelib turgan zamonda. Zamonga ayb yuklatsang, urush oʻchogʻi, ocharchilik xalqni qiynadi. Shunda yana bir haqli savol qiynaydi bir hovush qulpinaydan nahotki, inson joni aziz emasmi deysan, qoʻliga ilondek chirmashgan simlarni ekinlar orasiga tashlayotgan oʻgʻilga qarab. Xullas bu kabi misollar juda koʻp. “Ikki eshik orasi” romanidagi soddadil qishloq odamlari hayoti goʻyoki, sokin aks etadi. Urush balosi bilan fojialar eshigi ochilib ketadi. Bu yerda yana ham jiddiy, tuygʻular soʻnishi, sevgi oʻrnini hiyonat egallashi kabi fojialar aks etadi.

---

<sup>1</sup> [oriens.uz](http://oriens.uz)  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

Muallif qo'lidagi qalam go'yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so'zlar musiqa singari quyilib keladi uning hikoyalari she'rdek, dostondek o'qiladi, ular yakka so'zda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, hikoyalari ko'p ovozli simfoniyani eslatadi, hatto uning badiiyalari, publisistik maqolalarini o'qiganda inson ko'ngil xazinasining, tuyg'ularining xilma-xil jilolari mujassam, oddiy maishiy kechinmalardan tortib ulkan ijtimoiy mushohadalar, keskin ruhiy dramalar, fojijalar, qabohatlar haqida qalam tebratganda ham ajib samimiyat, hazin va nurli bir kuy aks-sado berib turadi. O'tkir Hoshimov nasrini kitobxonga manzur qilgan joziba sirlaridan biri shunda. <sup>2</sup>Adabiyotshunos Abdug'afir Rasulov o'zining ardoqli adib asarida "O'tkir Hoshimov inson, iste'dodli yozuvchi, lavozimdagi rasmiy shaxs. Aqlli, dono inson... U – ko'p betakror adabiy qahramonlar yaratgan taniqli yozuvchidir", -deydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hoshimov O'. O'zbeklar.-T: O'qituvchi. 2006 yil
2. Karimov A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: Sharq. 1997 yil
3. Rasulov A. Ardoqli adib.O'tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. – T., "Sharq", 2001
4. [oriens.uz](http://oriens.uz)
5. [ziyouz.com](http://ziyouz.com)

---

<sup>2</sup>”(Rasulov A. 2001: 76).  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)